

BADIIY ADABIYOTDA METAFORA.
GEORGE ORWELL “HAYVONLAR FERMASI” (ANIMAL FARM) ASARI
MISOLIDA (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI ASOSIDA)

Mahfuza Hoshimova
Farg‘ona Davlat universiteti
mahfuzahoshimova1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy adabiyot vositasi bo‘lmish metafora hamda uning adabiyotda qo‘llanilishini yoritishga bag‘ishlanadi. Bilamizki badiiy adabiyotda eng muhim qurol bu so‘z. Uni qanchalik ta‘sirchan va tushunarli qilib yetkazib berish esa badiiy tasvir vositalari orqali amalga oshiriladi. Metafora badiiy adabiyotning nafaqat nazmiy yo‘nalishi balki nasrida ham keng qo‘llaniladi. Ushbu maqola orqali ushbu terminni badiiy adabiyotda qo‘llanilishi hamda yozuvchi yoki shoirning o‘z asarlarida qo‘llash maqsadlarini keltirib, misollar orqali isbotlab ketmoqchiman. Shu maqsadda **George Orwell “Hayvonlar fermasi”(Animal farm)** asarini o‘zbek va ingliz tillari tahlil qilishga harakat qildim.

Kalit so‘zlar: Metafora, o‘xshatish, ko‘makchi, shakl yasovchi qo‘shimchalar, tobe so‘z, hokim so‘z, sinekdoxa

Ikki narsaning bir-biriga o‘xshashligi asosida bir so‘z bilan ikkinchisini atash metafora(yunoncha metaphore-ko‘chirish)deb atalib, u so‘z ma‘nosini kuchaytirishga xizmat qiladi.Narsa o‘z xususiyat,shakl,harakat,rang,hid,hajm va shu kabi biror belgisiga ko‘ra boshqa shu xususiyatga ega bo‘lgan narsaning nomini oladi.[4]

Metafora usuli bilan bir so‘zning ma‘nosi ikkinchisiga ko‘chganda,o‘sha predmet uchun umumiy bo‘lgan belgi tushunchada saqlanib qoladi.Metafora usuli bilan ma‘no ko‘chirish asosan badiiy adabiyotlarda uchraydi.Bu yozuvchining fikrini ta‘sirchan qiladi va uning badiiy estetik qobiliyatini namoyon

qiladi. Shuning uchun ham shoir va yozuvchilar bilan badiiy asar yaratishda bunday tasviriyy vositalar bilan do'st tutunishadi. [4]

Metafora - xayoliy ravishda ikkita bir-biriga o'xshamaydigan narsalar o'rtasida taqqoslashni keltirib chiqaradigan adabiy vosita hisoblanadi. Bunda A narsa ya'ni tobe so'z B narsa ya'ni hokim so'zning yaratilishini taminlaydi. Ushbu tenglama usuli orqali metafora noma'lum tushunchani ma'lum bir tushuncha bilan rang-barang bog'lash orqali tushuntirishga yordam beradi; mavhum g'oyalarni konkretlashtirishga; tushunib bo'lmaydigan tushunchalarni esa tushunarli bo'lishiga katta xizmat qiladi. Undan tashqari ritorik vosita sifatida asar o'quvchi, mushtariylarning diqqatini o'ziga jalb qila oladi.

Boshlang'ich ma'lumot sifatida quyadigi jummalarni misol qilib kursatishimiz mumkin:

1. *"Bill is an early bird."* __ *"Bill- erta qush."* (Odatda saharlab erta turib oladigan insonlarga nisbatan ishtiladi.)
2. *"Life is a highway."* __ *"Hayot bu katta yo'l"* (Hayotni juda uzoq sayohatga o'xshatish ingliz adabiyotida ko'plab kuzatiladi)

"Her eyes were diamonds." __ *"Uning ko'zlari olmos edi"* (Ya'ni uning ko'zlari olmos kabi porlab, yarqirab turardi) [3]

E'tibor bergan bo'lsangiz, metafora har doim so'zma-so'z tarjima qilinmaydi, balki butun ma'noga nisbatan konteksga ko'ra tarjima qilinadi.

Metafora bu o'xshatishmi?

Ba'zi til o'rganuvchilar metaforani o'xshatish vositasi (simile) bilan chalkashtirib yuborishadi. Aslida ular bir biridan tubdan farq qiladi. Agar gapda metafora oldidan kabi, dek (as, like), singari, xuddi kabi ko'makchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning qo'llansa, bu metafora hisoblanmaydi, o'xshatish hisoblanadi.

Masalan:

Life is a highway- metafora

Life is **like** rainbow- O'xshatish

Metoforaning boshqa badiiy o'xshatish vositalaridan farqlay olish ba'zan qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu sababi ko'plab misollar orqali ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

She's **as** cute **as** a button.

It's **like** shooting fish in a barrel.

He's **as** nutty **as** a fruitcake [5]

Turli manbalarda metaforani adabiyot uchun tomchi suvdek muhim hisoblashadi. Chunki yozuvchilar yoki shoirlar o'z asarlariga badiiy bo'yoq berish uchun yoki boyoqdorlikni yaratish uchun metafordan juda ko'p foydalaniladi. Ba'zan esa bir metafora butun bir gapning tarjimoni ham bo'lishi, agar bu vosita olib tashlansa, matn o'z ma'nosini yo'qotishi ham mumkin.

Metafora quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Metaphors can make prose more muscular or imagery more vivid:

Metafora tasvirni yoki jumlani yanada aniqlashtirish uchun xizmat qiladi.

Writers frequently turn to metaphors to describe people in unexpected ways:

Odatda Yozuvchi metaforadan odamlarning turli kutilmagan holatlar bilan tasvirlash uchun ishlatadi.

Metaphors can help “visualize” a situation or put an event in context:

Metafora mavjud vaziyatni tasavvur qilish yoki holatlarni aniq contextda tushunishga yordam beradi

To entertain and tickle the brain, metaphor examples sometimes compare two extremely unlike things:

Ba'zan bu san'at turi orqali ikkita bir-birga o'xshamagan narsalar taqqoslanadi.

Metaphors can help frame abstract concepts in ways that readers can easily grasp:

Metafora mavhum tushunchalarning o'quvchi uchun tushunarli yo'llar bilan yetkazib berish uchun xizmat qiladi.[3]

Bunda eng asosiysi yozuvchining metaforadan foydalana olish va badiiy tasvir vositalaridan farqlay olish qobiliyatiga hamda ushbu vositadan foydalanishining aniq maqsadiga uzviy bog'liqdir. Sababi o'quvchiga bir mavhum tushunchani aniq holda yetkazib berish yoki kam so'z orqali ko'p ma'no anglatuvchi jumlar yaratish kitobxonning kitob mutoolasi jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim hisoblanadi. Misol tariqasi, George Orwellning "Animal Farm" ya'ni "Hayvonlar fermasi"deb nomlangan asari olsak.Asarda yozuvchi hayvonlar nutqi asosida metoforadan mohirona foydalangan.

Metaforaning asarda qo'llanilishi va izohi:

1. All through that summer the work of the farm went **clockwork**. The animals were happy as they had never conceived it possible to be. Every mouthful of food was an **acute positive pleasure**, now that it was truly their own food, produced by themselves and for themselves, not doled out to them by a grudging master. Butun yoz fermadagi ishlar xuddi **ish soati** dek i bir xil vaqtda bo'ldi.(Ushbu jumlada keltirilgan metafora **kabi** ko'makchisi bilan yasalganda, u metafora emas balki o'xshatish hisblanar edi. Lekin tarjimada tushunarli bo'lisi uchun ko'makchilardan foydalanish mumkin. Ish soati metaforasi ish doimgidek,bir xil,o'z vaqtida, ya'ni 8/5 ish soati jumlarini ifodalamoqda.) Bu yerda metafora tasvirni yoki jumlani yanada aniqlashtirush uchun xizmat qiladi.

Hayvonlarni baxtiyor edilar, chunki ular hech qachon bunday bo'lishini tasavvur qilishmagan. Har bir luqma **o'tkir ijobiy rohat** edi.Ha bu ovqatlar o'zlari tomonidan o'zlari uchun tayyorlangan edi hamda uni hech qanday qizg'anchiq boshliq taqsimlab bermas edi.(Yuqoridagi jumlada o'tkir so'zi lazzat so'ziga nisbatan qo'llanilmoqda.O'tkir so'zi biror bir narsaning o'tkirli xususiyatini ifodalash uchun ishlatiladi.Biroq badiiy adabiyotda tasviriy vosita sifatida bu so'z ko'chma ma'noda qo'llanilagan va ma'noni kuchaytirish uchun ishlatilgan.)

Beasts of England, beasts of Ireland,

Hearken to my **joyful tidings**

Of **the golden future time**.

Soon or late **the day is coming**,

Tyrant Man shall be o'erthrown,

Angliyaning hayvonlari,

Irlandiya hayvonlari,

quvonchli xabarimga quloq solinglar

U **Oltin kelajak** haqida.

Hademay o'sha **kun keladi**.

Zolim odamdan qutilamiz,

Yuqorida keltirib o'tilgan she'riy jumlada metaforalar badiiylikni oshirish maqsadida qo'llanilmoqda. **“Joyful tidings”** va **“the golden future”** kabi jumalarda metaforaning xususiyat deb nomlangan turi keltirib o'tilgan. (Metaphors can make prose more muscular or imagery more vivid) Metafora tasvirni yoki jumlani yanada aniqlashtirish uchun xizmat qilgan. Va (To entertain and tickle the brain, metaphor examples sometimes compare two extremely unlike things) Ba'zan bu san'at turi orqali ikkita bir-birga o'xshamagan narsalar taqqoslandi.

“The day is coming” bu jumlada esa metaforaning harakat ma'nosi qo'llanilgan. Ba'zan bu san'at turi orqali ikkita bir-birga o'xshamagan narsalar taqqoslanadi. (Metaphors can help frame abstract concepts in ways that readers can easily grasp) Metafora mavhum tushunchalarning o'quvchi uchun tushunarli yo'llar bilan yetkazib berish uchun xizmat qilmoqda.

3. When Squealer went on to give further graphic details of Boxer's **death-bed**, the admirable care he had received, and the expensive medicines for which Napoleon had paid without a thought as to the cost, their last **doubts disappeared**.

Chiyildoq Bokschining **o'lim to'shagidagi** qo'shimcha tafsilotlarni, uning qimmatbaho parvarishlarini va Napoleonning narxi haqida o'ylamasdan pul

to'lagan qimmatbaho dori-darmonlarni keltirgani haqidagi tafsilotlarni batafsil keltirishda davom etganda, ularning so'nggi **shubhalari g'oyib bo'ldi**. "Death-bed"-o'lim to'shagi so'z birikmasi metafora usuli bilan ma'no kochgan bo'lib, mavjud holatni bo'rttirish uchun xizmat qilmoqda. "Disappeared" bu so'z esa harakat belgisiga ko'ra ma'no ko'chgan.

5. **A cry of horror** burst from all the animals.

Barcha hayvonlardan **qo'rqinch** ko'z yoshlari otilib chiqdi. Ko'z yosh to'kayotganlar qo'rquvdan titrayotganliklarini ifodalash maqsadida yozuvchi **A cry of horror** jumlasidan foydalangan. (Writers frequently turn to metaphors to describe people or their feelings in unexpected ways:) Ya'ni Yozuvchi metaforadan odamlar va ularning his-tuyg'ularini turli kutilmagan holatlar bilan tasvirlash uchun ishlatadi.

6. But no animal can escape the **cruel** knife in the end.

Lekin oxirida hech qaysi hayvon **shavqatsiz pichoq**dan qocha olmaydi. Ushbu jumlada pichoqning ularni bir kun kelib o'ldirishi haqida fikr yuritilib, shavqatsiz so'zi jonsiz buyumga nisbatan qo'llanilmoqda. Biz ko'rib turgan bu jumlada metafora (Writers frequently turn to metaphors to describe people in unexpected ways) orqali odamlarning turli kutilmagan holatlar bilan tasvirlash hamda metaphors can help "visualize" a situation or put an event in context) Metafora mavjud vaziyatni tasavvur qilish yoki holatlarni aniq contextda tushunishga yordam berish uchun yozuvchi tomonidan ishlatilgan.

(Eslatma, shavqatsiz pichoq so'z berikmasi orqali esa sinekdoxa (qism orqali butun) ma'no ko'chishi mavjud. Ya'ni bu jumla bilan shavqatsiz inson nazarda tutilmoqda).

7. And remember, comrades, your resolution must never **falter**. No argument must **lead** you astray.

Yodingizda tuting, safdoshlar, sizning qaroringiz hech qachon **zaiflashmaydi**. Hech qanday bir bahsingiz sizni egri yo'lga **boshlamaydi**. Bu jumlada ishlatilgan

metafora badiiy asarga obraz qo'shish uchun ishlatilgan. Va metafora ma'lum bir so'zni jonlantirish vazifasini o'tagan.

They had had **a hard year**, and after the sale of part and corn, the stores of food for the winter were none too plentiful, but the windmill compensated for everything.

Ular uchun o'sha yil qattiq kelgan edi, bug'doyning bir qismi sotib bo'lingach, qish uchun g'amlangan ovqat yetarli darajada emasligi ayon bo'ldi, lekin shamoltegirmoni kam ozuqani qoplay oldi. Ushbu jumlada keltirilgan metafora (Metaphors can help "visualize" a situation or put an event in context) mavjud vaziyatni tasavvur qilish yoki holatlarni aniq kontekstda tushunishga yordam bermoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, metaforadan foydalanish orqali yozuvchi turli holatlarni o'quvchi kutmagan yo'llar bilan tasvirlashga erishgan.

Xulosa:

Yuqorida ta'kidlab, o'tilganidek, metafora orqali ikkita bir-biriga o'xshamagan yoki bog'liq bo'lmagan tushunchalar bog'lanadi, o'quvchining diqqatini tortish maqsadida kutilmagan o'xshatishlar qilinadi, mavhum va tushunarsiz bo'lgan holatlarni yozuvchi aynan shu usul orqali o'quvchiga yetkazib beradi. Badiiy adabiyotda ko'plab yozuvchilar ifodalamoqchi bo'lgan fikrlariga rang berish ba'zan bo'rttirish uchun ishlatishadi. Sababi, asarlar o'zining badiiy o'xshatmalari bilan o'quvchini o'ziga tortadi. Ayniqsa, hayvonlar yoki jonsiz narsalarni jonlantirishda shu kabi badiiy vositalardan foydalanish talab etiladi. Boshqa badiiy tasviriy vositalar singari metafora ham juda kuchli qurol hisoblanadi. Chunki, siz qo'llagan metafora orqali o'quvchi ongi va kuchli tasviringiz o'rtasida ko'prik yaratasisiz va bu bilan siz har bir fikringizni qiziqarli, hayotiy qilib, o'quvchining qahramon va u yashayotgan dunyoni erkin tassavur qila olishiga zamin yarata olasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. George Orwell "Animal farm"

2. Hozirgi o'zbek adabiy tili.2-kitob. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova; ILM ZIYO» TAIKKEHT-2016.
3. [90+ Metaphor Examples in Literature That You Need to Know](#) 19 october 2018.
4. [Metaphor - Literary Terms *literaryterms.net* › *metaphor*](#)
[What is A Metaphor? —Definition and Examples | Grammarly](#)
[www.grammarly.com › *blog*](#)